

Xavfni identifikatsiya qilish, kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni baholash va boshqarish tartibi

1-bob. Umumiy qoida

1. Ushbu Tartib Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (keyingi o'rinlarda-Universitet)da xavfni identifikatsiya qilish, kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni baholash va boshqarishni belgilaydi.

2-bob. Xavfni identifikatsiya qilish

2. Xavfni identifikatsiya qilish bosqichining asosiy vazifalari - barcha xavflarning manbalarini aniqlash va ularni amalga oshirish yo'llarini aniq tavsiflashdan iborat.

3. Xavfni identifikatsiya qilishda texnologik tizimdagi qaysi elementlar, texnik qurilmalar, texnologik jarayonlar jiddiy tahlil qilishni talab qiladigan va xavfsizlik nuqtai nazaridan ahamiyatli bo'lmagan holatlar aniqlanadi.

4. Quyidagilar xavflarni identifikatsiya qilish natijalari hisoblanadi:

xavf mavjud bo'lgan holatlarning ro'yxati;

xavf mavjud bo'lgan holatlarning xavf manbalarini tavsiflash;

xavf mavjud bo'lgan holatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, xavf- xatarlar omillari;

kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni oldindan baholash.

5. Ushbu Tartibning 1-ilovasiga muvofiq, Universitetning bo'linmalari rahbarlari tomonidan "Xavflar matritsasi" shaklini to'ldirish orqali kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlar identifikatsiya qilinadi.

3-bob. Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni baholash

6. Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1-qadam: Ehtimoliylik darajasini aniqlash:

ehtimoliylik darajasini aniqlash quyidagi 1-jadvalda keltirilgan omillarni baholash orqali amalga oshiriladi:

Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarning paydo bo'lish ehtimoliyligiga ta'sir qiluvchi omillar	1-jadval +/-
Faoliyatni amalga oshiradigan xodimlarning malakasi yetarli mi?	
Foydalanilayotgan asbob va uskunalar talablarga javob beradimi?	
Faoliyatni amalga oshirishning hujjatlashtirilgan usuli mavjudmi?	
Faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari o'lchanishi va nazorat qilinishi amalga oshiriladimi?	
Atrof-muhit omillari (yorug'lik, shovqindan himoyalani sh, yuqori harorat) talablarga javob beradimi?	

Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlar paydo bo'lishi ehtimoliyligining qiymati 1 dan 5 ballgacha bo'lishi mumkin.

Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlar ta'sir qilishining paydo bo'lishi ehtimoliyligi quyidagi 2-jadvalda keltirilgan shkalalar orqali baholanadi:

2-jadval

Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarning paydo bo'lishi ehtimoliyligini baholash shkalasi	
Beshta salbiy javob (-)	5 ball
To'rtta salbiy javob (-)	4 ball
Uchta salbiy javob (-)	3 ball
Ikkita salbiy javob (-)	2 ball
Bitta salbiy javob yoki uning yo'qligi (-)	1 ball

2-qadam: Ahamiyatlilikni baholash:

ahamiyatlilikni baholash uchun sodir bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisaning oqibati ahamiyatliligini aniqlash kerak.

Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisaning oqibati ahamiyatliligini baholash quyidagi 3-jadvalda keltirilgan shkalalar orqali aniqlanadi:

3-jadval

Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisaning oqibati ahamiyatliligini baholash shkalasi	
O'lim bilan tugashi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisa	5 ball
Jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatilishi va zudlik bilan shifoxonaga olib borilishi talab etadigan guruhli yoki og'ir shikastlanishi mumkin bo'lgan xolatda	4 ball
Jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatilishi va zudlik bilan shifoxonaga olib borilishi talab etadigan oqibati o'rtacha og'ir shikastlanishi mumkin bo'lgan holatda	3 ball
Jabrlanuvchini shifoxonaga yotqizish talab etilmaydi, ammo mehnat qobiliyati kamida bir kunga yo'qotilsa yoki tibbiy xulosaga muvofiq yengilroq boshqa ishga o'tishi zarur bo'lgan holatda	2 ball
Kichik jarohatlar oqibatida vayt yo'qotish yoki ishni bajarishda shikastlanish ehtimoli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatda	1 ball

3-qadam: Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlar darajasini baholash:

kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlar darajasi "Xavflar matrisasi"ning asosiy ustunlari to'ldirilganidan so'ng aniqlanadi.

Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlar darajasini aniqlash jadvalidan foydalangan holda ehtimoliylik darajasini ahamiyatlilik darajasi bilan solishtiriladi va quyidagi 4-jadvalga asosan ikkita darajalarning kesishuv nuqtasida kasbga oid (kasbiy) xavf-xatar darajasi aniqlanadi.

Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatar darajasini aniqlash						
Ahamiyatlilik		Ehtimoliylik darajasi				
		5	4	3	2	1
O'lim	5	25*	20*	15*	10*	5**
Og'ir jarohatlanish	4	20*	16*	12*	8*	4**
Og'irligi o'rta jarohatlanish	3	15*	12*	9*	6*	3**
Yengil jarohatlanish	2	10*	8*	6*	4**	2**
Kichik jarohatlanish	1	5*	4*	3*	2**	1**

IZOH:

1 nazorat qilib bo'lmaydigan kasbga oid (kasbiy) xavf-xatar;

2 * nazorat qilinadigan kasbga oid (kasbiy) xavf-xatar.

4-qadam: Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatar darajasini qayd etish:

ahamiyatlilik darajasi 5 ball hamda ehtimoliylik darajasi 1 ball bo'lsa:

ahamiyatlilik darajasi 4 ball hamda ehtimoliylik darajasi 1 ball bo'lsa:

ahamiyatlilik darajasi 3 ball hamda ehtimoliylik darajasi 1 ball bo'lsa:

ahamiyatlilik darajasi 2 ball hamda ehtimoliylik darajasi 2 yoki 1 ball bo'lsa:

ahamiyatlilik darajasi 1 ball hamda ehtimoliylik darajasi 2 yoki 1 ball bo'lsa - xavf-xatarlar **nazorat qilinadigan** xavf-xatarlar darajasiga kiradi.

Ahamiyatlilik darajasi 5 ball hamda ehtimoliylik darajasi 5, 4, 3, yoki 2 ball bo'lsa:

ahamiyatlilik darajasi 4 ball hamda ehtimoliylik darajasi 5, 4, 3, yoki 2 ball bo'lsa:

ahamiyatlilik darajasi 3 ball hamda ehtimoliylik darajasi 5, 4, 3, yoki 2 ball bo'lsa:

ahamiyatlilik darajasi 2 ball hamda ehtimoliylik darajasi 5, 4 yoki 3 ball bo'lsa:

ahamiyatlilik darajasi 1 ball hamda ehtimoliylik darajasi 5, 4 yoki 3 ball bo'lsa - kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlar **nazorat qilib bo'lmaydigan** kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlar darajasiga kiradi va mazkur kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha tezkor choralar ishlab chiqishni talab qiladi.

Olingan natijalar ushbu Tartib 1-ilovasiga asosan "Xavflar matrisasi" shaklidagi "Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatar darajasi" ustunida qayd etiladi.

Bunda baholashni amalga oshirish uchun ma'lumotlar yetarli bo'lmasa, kasbga oid (kasbiy) xavf-xatar **aniqlanmagan** deb tavsiflanadi va qo'shimcha ma'lumotlarni yig'ish talab etiladi.

Belgilangan kasbga oid (kasbiy) xavf-xatar darajasini tasdiqlash uchun tashkilot tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari 4-jadvalda ko'rsatilgan "Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatar darajasi" ustuniga belgi qo'ygan holda kasbga oid (kasbiy) xavf-xatar darajasini aniqlaydi.

Ushbu 4-jadval keyingi kasbga oid (kasbiy) xavf-xatar tahlili amalga oshirilishiga qadar saqlanadi.

Misol uchun:

T/r	Faoliyat turi	Xavf (zarar yetkazishi mumkin bo'lgan predmet yoki vaziyat)	Kasbga oid (kasbiy) xavf- xatar (zarar)	Ehtimoliylik darajasi	Ahamiyatli darajasi	Kasbga oid xavf-xatar darajasi	Nazorat usuli (yo'riqnoma)	Xulosa
1	Balandlikdagi ishlar	Balandlik	Yiqilish	2	4	8	Xavfsizlik kamaridan foydalanadi, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha -son yo'riqnoma	Nazorat qilinadi
			Sinish	2	4	8		Nazorat qilinadi
			Vafot etish	4	4	16		
2	Yonuvchan suyuqlikni chiqarib tashlash	Yong'in kelib chidishi	Termik kuyish	2	2	4	Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha -son yo'ridqnoma	Nazorat qilinadi
		Aylanma mexanizmlar	Shikastlanish	3	1	3	Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha -son yo'ridqnoma	Nazorat qilinadi
		Yuqori kuchlanish	Elektr toki urishi	2	1	2	Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha -son yo'ridqnoma	Nazorat qilinadi
3	Kompyuterda ishlash	Uzoq vaqtli o'tirib ishlash	Gemorroy	3	3	9	Mavjud emas	Nazorat dilib bulmaydi
			Osteoxon droz	3	2	6	Mavjud emas	Nazorat qilib bo'lmaydi
		Nurlanish	Ko'zning TUR pardasi kasallani shi	2	2	4	Mavjud emas	Nazorat qilib bo'lmaydi
		Elektr toki urishi	Termal kuyish	1	2	2	Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha -son yo'ridqnoma	Nazorat qilinadi

7. Xavflar matrisasining "Nazorat usuli" ustunida nazorat usullari (yo'riqnoma, nizom, chora-tadbirlarga) ko'rsatiladi.

8. Agar aniqlangan kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarni boshqarishni nazorat usullari mavjud bo'lmasa, xavflar matrisasining "Xulosa" ustunida "Nazorat qilinmaydigan" deb ko'rsatiladi.

9. Mazkur "Xavflar matrisasi" mehnatni muhofaza qilish xizmatiga (muhandisi) topshiriladi, mehnatni muhofaza qilish xizmati (muhandisi) tomonidan Universitetning kasaba uyushmalari yoki xodimlarning boshqa vakillik organlari bilan birgalikda ushbu matrisa to'g'ri to'ldirilganligi tekshiriladi.

10. Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatar darajasi tasdiqlanganidan so'ng Universitetning mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi maqsadiga kiritish uchun eng muhim xavflar anidlanadi va ushbu Tartibning 2-ilovasiga asosan Universitetda nazorat qilib bo'lmaydigan xavf-xatar darajasini kamaytirish bo'yicha tadbirlar belgilanadi.

4-bob. Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni boshqarish

11. Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni boshqarish quyidagi asosiy vazifalardan iborat: sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ehtimoliy hodisalarning tezligini aniqlash:

sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ehtimoliy hodisalarning oqibatlarini baholash;

kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni baholash natijalarini umumlashtirish.

12. Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish xavflarni tahlil qilishning yakuniy bosqichidir. Tavsiyalarda kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni baholash natijalariga asoslangan xavflarni boshqarish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilanadi.

13. Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda, resurslarning cheklanganligini hisobga olib, birinchi navbatda eng sodda va kam harajat talab etadigan tavsiya va chora- tadbirlar ishlab chiqiladi.

14. Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha taklif qilinayotgan tavsiya va chora-tadbirlarning samaradorligini asoslash zarur bo'lsa, quyidagilar tavsiya etiladi:

mavjud resurslar bilan kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni maksimal darajada kamaytirishni ta'minlash:

minimal harajat bilan kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni maqbul darajagacha kamaytirish.

15. Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarning tahlilini o'tkazish usullarini tanlashda Kompaniya faoliyati turlarining xavfliligi darajasi, resurslarning mavjudligi, mutaxassislarning tajribasi va zarur bo'lgan ma'lumotlarning mavjudligi inobatga olinishi kerak.

16. Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni tahlil qilish usullarini tanlash va qo'llashda quyidagi talablarga rioya qilish tavsiya etiladi:

birinchi usul - xavflarni identifikatsiya qilish va kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni kamaytirish yo'llarini samarali tushuntirish imkonini yaratadigan natijalarni berishi kerak:

ikkinchi usul - takrorlanadigan va tekshiriladigan bo'lishi kerak.

Xavfni identifikatsiya qilish, kasbga oid (kasbiy)
xavf-xatarlarni baholash va boshqarish tartibiga
1-ilova

Xavflar matrisasi shakli

“TASDIQLAYMAN”

XAVFLAR MATRITSASI

Tarkibiy bo'linma nomi:

202__yil _____

Tahlil o'tkazilgan sana: 20 yil “__”

Faoliyat turi	Xavf (zarar yetkazishi mumkin bo'lgan jism yoki holat)	Xavf- xatar (zarar)	Xavf ta'siridagi shaxs	Ehtimoliylik darajasi	Ahamiyatlilik darajasi	Kasbga oid (kasbiy) xavf- xatar darajasi	Nazorat usuli (yuriqnoma)	Xulosa

Ishlab chiqdi: Tarkibiy bo'linma boshlig'i

Kelishildi: Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi
MMQ xizmati (mudandis)
Boshqa lavozmlar

Xavfni identifikatsiya qilish, kasbga oid (kasbiy)
xavf-xatarlarni baholash va boshqarish tartibiga
2-ilova

“TASDIQLAYMAN”

202__yil ____

Nazorat qilib bo'lmaydigan xavf-xatar darajasini kamaytirish bo'yicha tadbirlar

t/r	Xavfni identifikatsiyalash joyi	Nazorat qilib bo'lmaydigan kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlar	Kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni bartaraf etish yoki kamaytirish bo'yicha xarakatlar	Talab etiladigan mablag'	Mas'ul	Ijro muddati	Kutilayotgan natija
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							

Ishlab chiqdi: Tarkibiy bo'linma boshlig'i

Kelishildi: Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi
MMQ xizmati (mudandis)
Boshqa lavozmlar

